

Farg`ona viloyati XTXQTMOI ijtimoiy –
iqtisodiy fanlar kafedra mudiri, iqtisod
fanlari nomzodi, dotsent Haydarov
Xoshimjon Urinbayevichning “ Iqtisodiy
o`sinh va rivojlanish ” mavzusida
tayyorlagan

DARS ISHLANMASI

Farg'ona 2015

Ushbu dars ishlanma “Dars muqaddas” asosida ilg’or pedagogik texnologiyalar “Aqliy xujum”, “Ma’ruza”, “Klaster” interfaol usullardan foydalangan holda 9-sinf Iqtisodiy bilim asoslari fani “Iqtisodiy o`shish va rivojlanish” mavzusida yaratilgan. Ushbu dars ishlanma o`quvchilarning mavzuni qiyinchiliksiz o`zlashtirishlarida o`z samarasini beradi.

Mavzuni o`rganish davomida o`quvchilarning mustaqil fikrlashlari, nutq madaniyatining shakllanishiga, matematik salohiyatlarini oshirishlariga yordam beradi.

Guruhlarda ishlash orqali o`quvchilarning faolliklari oshadi. Mavzuni yoritishda darslik bilan qo`shimcha prezident ma`ruzalaridan, “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari. I.Karimov. asaridan va internet ma`lumotlaridan keng foydalanilgan.

Taqrizchi:

Farg`ona Davlat Universiteti iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida professori iqtisod fanlari doktori A G`ofurov

ijtimoiy-iqtisodiy fanlar
kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi dotsent
Xaydarov Xoshimjon.Urinbaevichning .

**“Iqtisodiy o`shish va rivojlanish”** mavzusida 9-sinflarda “ yozilgan dars ishlanmasi FVXTXQTMOI Ijtimoiy -iqtisodiy kafedrasining yig`ilishida muhokama qilindi.

Sana:

Sinf: `

Mavzu: Iqtisodiy o`lish va rivojlanish.

II. Darsning maqsadi:

A) Ta'limiy: Iqtisodiy o`lish va rivojlanish; real qiymatlar, nominal qiymatlar, iqtisodiy davr, iqtisodiy o`lish, aholining turmush darajasi ko`rsatkichlari haqida o`quvchilarga ma'lumot berish.

B) Tarbiyaviy: Vatanga muxabbat his tuyg`usini shakllantirib borish, vatanimiz iqtisodiyotini, rivojlanishiga va xayot darajasini yuksalishiga ishonch hosil qilish.

S) Rivojlantiruvchi: Respublikamiz makroiqtisodiy ko`rsatkichlari suratlarning o`lib borishi va rivojlanishi haqidagi fikrlarini kengaytirish.

IV. Darsning turi: Yangi bilim va tushunchalarni shakllantiruvchi.

V. Darsning usuli: aqliy hujum, interfaol, maruza, klaster.

VI. Darsning jihosi: mavzuga oid jadval va diagrammalar, tarqatma materiallar, test savollari, video proektor.

VII. Tashkiliy qisim: A) navbatchining axboroti

B) siyosiy daqiqa

S) uyga vazifani so`rash: tezkor savollar

- tugal maxsulotlar bu ...

- YaMM bu ...

- Sof ichki maxsulot ...

- YaMMni topish formulasini ayting.

- Milliy daromad nimalardan iborat.

VIII. Asosiy qism; yangi mavzu bayoni.

Reja:

1. Nominal qiymatlar.

2. Real qiymatlar.

3. Iqtisodiy davr.

4. Aholining turmush darajasi.

- Rivojlangan davlatlar deb nimaga aytiladi va ulardan misollar keltiring.
- Mamlakatning muayyan yildagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari o'sha yilda bo'lgan narxlarda hisoblanadi .Bu ko'rsatkichlarning qaralayotgan yildagi joriy narxlarda hisoblangan qiymati **nominal qiymat** deb yuritiladi.Lekin narxlar yildan yilga o'zgarib turadi shuning uchun mamlakatning turli yillardagi ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanayotganda ularning real qiymatidan foydalaniladi.

YaIM real va nominal qiymatlari orasidagi bog'lanish

$YaIM_r = YaIM_n$: bu yerda $YaIM_r$ - real qiymat.

$YaIM_n$ – nominal qiymat;

I – narxlarning o'sish darajasi.

Iqtisodiy davr

Bozor iqtisodiyoti hukum surgan davlatlardagi iqtisodiy faollik ma'lum davrlarda o'sib so'ng esa pasayib davriy ravishda tebranib turadi . Mamlakat iqtisodiyotining bir marta tebranishiga – bir marta o'sib so'ng pasayishiga ketgan vaqt **iqtisodiy davr** deb ataladi.

Mamlakat aholisining turmush darajasi iqtisodiy rivojlanganlik darajasini yaqqolroq ko'rsatadi . chunki u nafaqat aholi jon boshiga tog'ri keladigan YaMM qiymati bilan balki yana qator ko'rsatkichlar asosida o'lchanadi.Aholi turmush darajasini taqqoslashda aholining savodxonlik darajasi ,sog'lomlik darajasi umr ko'rish davomiyligi ,shaxar aholisining soni ,uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi kabi omillar hisobga olinadi

Aholining turmush darajasi - mamlakat fuqorolari turmush sharoitlarining umumiy tavsifi, taqdim etilgan iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlar sifati va ular bilan ta'minlanganlik darajasi.

Iqtisodiy farovonlik – ma'lum vaqt davomida mamlakat aholisi turmush darajasining muttasil yuqori bo'lib turishi.



Iqtisodiy o`sinh



IX. Mustahkamlash: rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari va aholining turmush darajasi bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash.

X. Baholash: darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi

IX. Uyga vazifa berish: iqtisodiy atamalarni yod olish, darslikni 82 – 87 - sahifalarini o'qib yozib kelish.